XALQ DEPUTATLARI TAXIATOSH TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 29-mart VI-74-47-13-215-K/24 Taxiatosh tumani

Xalq deputatlari Taxiatosh tumnai Kengashining 2023-yil 29-dekabr kungi “Taxiatosh tumanining 2024-yilgi byudjet parametrlarini tasdiqlash to‘g‘risida”ги VI-71-198-13-215-K/23-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi (“O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2013-yil 31-dekabr, 52-(I)-son)ning 28 va 100-moddasining bajarilishini ta’minlash maqsadida, 2024-yil uchun Taxiatosh tumani mahalliy byudjetining daromadlar va xarajatlar miqdori, aylanma kassa xarajati miqdori va byudjetga tegishli boshqa ko‘rsatkichlarni xamda Taxiatosh tumani Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2024-yil 12-fevral kungi 01-35-411-20-01-38-26-sonli xatini muhokama qilib, Xalq deputatlari Taxiatosh tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Taxiatosh tumani mahalliy byudjetining 2024-yil daromadlar xarajatlar bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlarining kutilayotgan ijrosi ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Taxiatosh tumani Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2024-yil 12-fevral kungi 01-35-411-20-01-38-26-sonli xati maqullansin.
3. Xalq deputatlari Taxiatosh tumani Kengashining 2023-yil 29 dekabr kungi “Taxiatosh tumanining 2024-yilgi byudjet parametrlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-71-198-13-215-K/23-son qarorining 2-bandiga quyidagicha o‘zgartirishlar kiritilsin:

Taxiatosh tumani mahalliy byudjetlarining 2024-yilgi asosiy daromad ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

7-ilovadagi Taxiatosh tumani mahalliy budjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirilsin.

4. Tuman moliya bo‘limiga;

Taxiatosh tumani mahalliy budjetning 2024-yil davomida mahalliy budjet xarajatlarining qisqarishi natijasida paydo bo‘lgan qo‘shimcha mablag‘lar tushumi hisobidan tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur o‘zgarishlar kiritib borish;

- budjetdan mablag‘ oluvchilarning budjetdan moliyalashtirishni ta’minlashni chuqur tahlil qilib borish;

- zarur hollarda budjet mablag‘larining saqlanishini asossiz deb topilgan va budjet mablag‘larining maqsadsiz ishlatilish holatlari sodir bo‘lgan budjet korxonalarini qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman hokimligiga va tegishli boshqarmalarga takliflar kiritish;

- Xalq deputatlari Taxiatosh tumani Kengashiga mahalliy budjetning bajarilishi bo‘yicha har chorakda hisobot kiritish;

- tuman g‘aznachilik bo‘linmasi bilan birgalikda budjet mablag‘larini maqsadli foydalanish hamda ularning maqsadsiz ishlatilishining oldini olish ustidan g‘aznachilik ijrosi orqali qat’iy nazoratga olish topshirilsin.

5. Mazkur qaror tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Artikov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi MADAMINOV ALISHER ABDULLAYEVICH

Xalq deputatlari Taxiatosh tumani
Kengashining
2024-yil 29-martdagi
VI-74-47-13-215-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Taxiatosh tumani mahalliy byudjetlarining 2024 yilgi asosiy daromad ko‘rsatkichlari to‘g‘risida

MA’LUMOT

ming.so‘m

№	Daromad turi	Taxiatosh tumani
	Jami daromadlar	**29 103 000**
I.	**Rag‘batlantiruvchi (Stimuliruyuщie) daromad**	**0**
II.	**Biriktirilgan daromadlar**	**29 103 000**
	Tuman va shaharlarga biriktirilgan	**16 060 000**
1	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 965 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (ITD)	505 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	8 730 000
4	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda	140 000
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 720 000
	Viloyat va tuman (shahar)lar byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadigan daromadlar	**12 420 000**
1	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq (AZS)	
2	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	27 133 000
	mahalliy byudjetga	0
3	Yuridik shaxslar yer solig‘i	9 018 000
	ajratma meyori	***100***
	mahalliy byudjetga	9 018 000
4	Aylanmadan olinadigan soliq	3 402 000
	ajratma meyori	***100***
	mahalliy byudjetga	3 402 000

	Viloyat byudjetiga	**623 000**
1	Davlat bojlari	
2	Davlat tashkilotlari foyda solig‘i	
3	Ijara to‘lovlari	
4	Xususiylashtirish	1 246 000,0
	ajratma meyori	***50***
	mahalliy byudjetga	623 000
5	Jarimalar	
6	Boshqa tushumlar	
III.	**Taqsimlanuvchi daromadlar (formula bo‘yicha)**	**13 093 784**
	Aholi soni (ming kishi)	*76 435*
15.	Aksiznыy nalog na alkogol (v t.ch. pivo)	5 675 729
16.	Aksiznыy nalog na mobil svyaz	2 286 195
17.	Aksiznыy nalog na tabachnыe produkt	5 131 860
	Ma’lumot uchun: 2022 yil parametr	*33 354 367*
	JAMI XARAJATLAR	**121 173 056,0**
	TRANSFERTLAR	**92 070 056**

Xalq deputatlari Taxiatosh tumani
Kengashining
2024-yil 29-martdagi
VI-74-47-13-215-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Taxiatosh tumani mahalliy byudjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdorlari

mln so‘mda

T/r	Hududlar nomi	Miqdori
	JAMI	**730,0**
	shundan	
1	Taxiatosh tumani	730,0